

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra Viloyatda 2 996 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 743 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 672 tasi (22,4 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 672 tasi (22,4 %) mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 212 tasi (7,1 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-yanvar holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 833,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	18 833,2	109,3
Termiz shahri	2108,4	112,6
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	734,4	112,7
Bandixon tumani	475,5	116,5
Boysun tumani	300,6	110,2
Denov tumani	1451,5	106,4
Jarqo'rg'on tumani	1433,3	107,2
Qumqo'rg'on tumani	1110,7	109,4
Qiziriq tumani	527,2	102,8
Muzrabot tumani	828,2	108,2
Oltinsoy tumani	413,4	110,4
Sariosiyo tumani	1208,2	109,3
Termiz tumani	1715,0	159,3
Uzun tumani	464,8	110,1
Sherobod tumani	1351,8	115,4
Sho'rchi tumani	1186,1	113,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz tumanida (19 388,7 ming so'm), Termiz shaharda (10 032,8 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 323,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Termiz tumanida (154,8 %), Bandixon tumanida (113,5 %) Sherobod tumanida (113,3 %), Sho'rchi tumanida (111,1 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-dekabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 015,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (90,4 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 668,0 mlrd so'm (3,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 742,0 mlrd so'm (3,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 407,5 mlrd so'm (2,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-dekabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 3 055,4 aroq ming l 100%li spirt aroq mahsulotlari (26,7 m. ga) , 88,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2,1 m ga), 718,5 ming tonna tarkibida 15 %dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari-ming l (6,5 m.ga ko'paygan) , jumladan 23, 8 tabiiy qumlar-t (32,1% ga) , shuningdek 63,5 ming tonna xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), bitumsimon jinslardan olingan neft-ming t (9,4 % ga kamaygan).

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar- dekabr *	2025-yil yanvar- dekabr
Aroq, ming litr	127,9	114,5	3 055,4
Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna	16 455	17 682	34 714,9
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	36512,6	34957,4	35 513,9
Neft bitumi, ming t	53,1	46,2	41,3
Tabiiy qumlar, ming t	21,2	35,1	23,8
Toshko'mir, ming t	352,1	900,1	869,2
Xom neft, ming t	79,1	70,1	63,5
Boshqa paxta chigiti, ming t	37,1	30,8	46,9
Kepak, ming t	17,2	12,9	29,9
Portlandsement, ming t	923,5	715,7	367,0
Zargarlar tayyorlagan oltin va kumush buyumlar va ularning qismlari, t	-	-	1,0

*2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,7 % (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 35,3 % (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,7 % (1,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,8 % (26,1 %), quyi texnologiyali 74,6 % (72,0 %) ni tashkil etgan.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 87,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 73,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
---------------------	-------------------------	-------------------------	------------------------

Elektrenergiya, mln.kvt.s	428,2	638,7	561,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	22,9	22,9	16,8

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 8,9 m. ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlarida 2.2 m. ga ko'paydi

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	8,0	7,2	63,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	94,5	91,8	194,9
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	19,0	23,6	52,6

**2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 12 301,6 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 65,3 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 64,8 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

